

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DJURAYEVA SOHIBA BARAT QIZI

TARBIYAVIY MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA KAR VA ZAIF
ESHITUVCHI O'QUVCHILARNING ESHITISH IDROKINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.03 –Maxsus pedagogika

PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Djurayeva Sohiba Barat qizi

Tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida kar va zaif eshituvchi

o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish metodikasi..... 3

Джураева Сохиба Барат кизи

Методика развития слухового восприятия глухих и слабослышащих

учащихся в процессе воспитательных занятий.....21

Djuraeva Sokhiba Barat kizi

Methodology for developing auditory perception of deaf and hearing-impaired
students in the process of educational training.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DJURAYEVA SOHIBA BARAT QIZI

TARBIYAVIY MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA KAR VA ZAIF
ESHITUVCHI O'QUVCHILARNING ESHITISH IDROKINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.03 –Maxsus pedagogika

PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.3.PHD/Ped8401- raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsenti

Egamberdiyeva Nigora Azizovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "11" 06 kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (508 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99871) 712-27-55; faks: (99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "01" 06 kuni tarqatildi.
(2026-yil "01" 06 dagi 22 - raqamli reestr bayonnomasi).


F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d. (DSc), professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini lingvodidaktik va innovatsion pedagogik muhitda, individual, kompetensiyaviy yondashuvlar vositasida rivojlantirishning sensomotor mexanizmlari amaliyotga joriy etilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalarda mustaqil nutq ko'nikmalari, eshituv idrokiga asoslangan muloqot malakalari, nutqiy xotirani barqarorlashtiruvchi ijtimoiylashuv kompetensiyalarini tizimli shakllantirish o'ziga xos integrativ-funksional metodik jarayon modellarini taqozo etadi. Bunda eshitish cheklanganligiga bog'liq ravishda va bolalarning individual xususiyatlariga ko'ra tanlangan korreksion-kompensatsion ta'sir modifikatsilari muhim sanaladi. BMT tomonidan qabul qilingan "Global fuqarolikni tarbiyalash: mavzular va o'qitish maqsadlari" dasturida XXI asr muammolarini analiz qilishga, hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga ta'lim oluvchilarni tayyorlashning interaktiv metodlari, innovatsion texnologiyalarini amaliyotga joriy etish taklif etilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalarda mavjud eshitish qoldig'idan foydalanish orqali ularda axborotni yaxlit idrok qilish, murojaatni tushunish, nutqiy vaziyatga mos ravishda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishda tarbiyaviy mashg'ulotlarning korreksion-didaktik imkoniyatlaridan foydalanish va bu jarayonni metodik ta'minlash dolzarb sanalmoqda.

Dunyo ta'lim muassalari va tadqiqot markazlarida kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarini individual, differensial yondashuvlar asosida o'qitish, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar vositasida tarbiyalash hamda ijtimoiylashtirish mazmunini modernizatsiyalash, korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bolalarda eshitish funksiyasining buzilishi yoki yo'qolishi sababli yuzaga keluvchi akademik-ijtimoiy bo'shliqlarni erta tashxis qilish, korreksiyalashga mo'ljallangan integrativ, kompensatsion metodikalarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, bolalarda axborotni idrok etish, nutqiy vaziyatga mos uzatish ko'nikma va malakalarini yakka, frontal va guruhli mashg'ulotlarda kinestetik ta'sir orqali rivojlantiruvchi texnologiyalarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shuningdek, korreksion ishlarni tarbiyaviy mashg'ulotlarda oila hamkorligi, real nutqiy sharoitlarda amalga oshirish bo'yicha metodik kompleksni adaptivlashtirishga ustuvorlik berish dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning eshituv idrokini rivojlantirishda innovatsion metodik va assistiy texnologiyalardan foydalanishga mo'ljallangan moddiy-texnik hamda o'quv bazani mustahkamlash bo'yicha huquqiy-me'yorlar ishlab chiqilgan. "Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'quv muhitini qulaylashtirish, pedagoglarning kasbiy kompetentligini tizimli rivojlantirish orqali inklyuziv va maxsus ta'lim samaradorligini oshirishning yetakchi tendensiyalarini o'rganish va amaliyotga joriy etish" bo'yicha ijtimoiy, tashkiliy-korreksion vazifalar belgilangan. Ta'lim va tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda eshitish idrokini rivojlantirish metodikasini akustik, sensor integrativ,

audiokinetetik, vizualkinestetik va taktilkinestetik yondashuvlar asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy mashg'ulotlarda kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqini tizimli shakllantirish tarbiyachi-pedagoglarning hamkorligida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-aprelda PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. to'g'risida." farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrda PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishning pedagogik, psixologik va metodik aspektlari F.Alimxo'jayeva, D.Azimova, N.Bekmurodov, N.Dadaxo'jayeva, U.Fayziyeva, X.Gaynutdinov, X.Malikova, Z.Mamarajabova, D.Muxitdinova, D.Nazarova, S.Pulatova, M.Qodirov, F.Qodirova, Sh.Rajapov, X.Ravshanova, X.Raximova, R.Rustamova, K.Sadirova, G.Temurova, I.Xaydarov va boshqalarning tadqiqotlarida tahlil etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan R.M.Boskis, A.I.Dyachkov, L.A.Golovchis, S.A.Zikov, A.G.Zikeyev, K.G.Korovin, B.D.Korsunskaya, E.I.Leongard, L.P.Noskova, F.Rau, T.A.Vlasova boshqalar tadqiqotlarida kar va zaif eshituvchi bolalar talaffuz va eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik, korreksion-didaktik tomonlari o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan John Albertin, L.Bauman, Jak-Dalkroz, H-Dirksen, Tom Humphries, Carol Padden, M.Marschark, Harry G.Lang tadqiqotlarida ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirishda akustik va kinestetik yondashuvlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy ishlar rejasiga muvofiq "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining pedagogik-psixologik asoslari" nomli ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining eshitish idrokini tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining eshitish idrokini rivojlantirishda tarbiyaviy mashg'ulotlarning kompleks metodik imkoniyatlarini aniqlash;

kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari eshitish idrokini rivojlantirishning funksional-metodik modelini takomillashtirish;

tarbiyaviy mashg'ulotlarda o'quvchilar eshitish idrokini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

tarbiyaviy mashg'ulotlarda o'quvchilar eshitish idrokini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish.

Tadqiqot obyektini sifatida tarbiyaviy mashg'ulotlarda kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining eshitish idrokini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent, Andijon, Jizzax viloyatlarining kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlaridan jami 172 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etildi.

Tadqiqot predmetini kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining eshitish idrokini tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida rivojlantirishning mazmuni, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari Tadqiqotda anketa, suhbat, so'rovnoma, kuzatish, pedagogic eksperiment natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining eshitish idrokini rivojlantirishda tarbiyaviy mashg'ulotlarning kompleks metodik imkoniyatlari o'quvchilarda eshitish chegarasining personal diagnostikani multisensor ta'sir muhitida "yaqindan uzoqqa" dinamikasida qo'llash asosida aniqlashtirilgan;

kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari eshitish idrokini rivojlantirishning funksional-metodik modeli korreksion-kompensatsion va integral tamoyillarga asoslangan 3 pozitsiya(eshitish, eshitish-ko'rish, kartochna-jest)li metodik tizimni audio-vizual-taktil kinestetik intervallarda sensomotor eshituv reaksiyasi dinamikasiga ko'ra optimallashtirish asosida takomillashtirilgan;

tarbiyaviy mashg'ulotlarda o'quvchilar eshitish idrokini rivojlantirish texnologiyalari eshitish+labdan o'qishga motivatsiyalovchi adaptiv lug'atning akustik-ritmik mashqlar bilan ovoz+nafas+diksiya parallelida integrallashuvini individual rivojlanish xaritasi qaydlariga ko'ra ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

tarbiyaviy mashg'ulotlarda o'quvchilar eshitish idrokini rivojlantirishning didaktik ta'minoti fonetik, leksik, grammatik korreksiyada o'quvchilarning eshituv-nutqiy faoliyati audiologik tasnifga ko'ra nutqiy akselerator xususiyatlari bilan to'g'ri proporsional ekanligini ko'rsatib berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida eshitishga mo'ljallangan korreksion-pedagogik ishlarning samaradorligini oshirishda o'qituvchi va tarbiyachilarning hamda oilalar o'rtasidagi surdopedagogik hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi "Tarbiyaviy mashg'ulotlarda multisensor yondashuv asosida eshituv idrokini rivojlantirish metodikasi" nomli seminar dasturi ishlab chiqildi va mashg'ulotlar ishlanmalari joriy etildi;

kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirishga mo'ljallangan fanlar kesimida adaptiv lug'at ishlab chiqildi va amaliyotda qo'llanildi;

o'quvchilarning eshituv-nutqiy faoliyatini akustik, audiokinetetik, vizualkinestetik, taktil-kinestetik, sensomotor integrativ muhitda tashkil etishga oid metodik tavsiyalar asosida "Maxsus pedagogikada tadqiqot-tajribalar" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi;

o'quvchilar eshitish idrokini real nutqiy vaziyatlarda 3 ta pozitsiyada rivojlantirish metodlarini individual, personal diagnostikaga ko'ra qo'llashga xizmat qiluvchi "Eshitaman, anglayman, qo'llayman: kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ishlashning innovatsion metodikasi" nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlar materiallari to'plamlarida, Oliy Attestatsiya Komissiyasi ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy nashrlarda chop etilgan maqolalar; nashr etilgan o'quv qo'llanmalar; dissertatsiya mazmunini to'liq yoritish uchun yetarli hajmda to'plangan materiallar, tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi; taqdim etilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullar yordamida aniqlanganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi; hamda ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati kar va zaif eshituvchi o'quvchilar eshitish idrokini tarbiyaviy mashg'ulotlarda rivojlantirishning kompleks metodik imkoniyatlari eshitish chegarasining personal diagnostikani multisensor ta'sir muhitida "yaqindan uzoqqa" dinamikasida aniqlashtirilganligi, korreksion-kompensatsion va integral tamoyillarga asoslangan 3 pozitsiya(eshitish, eshitish-ko'rish, kartochka-jest)li metodik tizimning audio-vizual-taktil kinestetik intervallarda sensomotor eshituv reaksiyasi dinamikasiga ko'ra optimallashtirilganligi, fonetik, leksik, grammatik korreksiyada o'quvchilarning eshituv-nutqiy faoliyatining audiologik tasnifga ko'ra nutqiy akselerator xususiyatlari bilan to'g'ri proporsional ekanligi dalillanganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarida eshitish idrokini adaptiv lug'at, xususiy va integral tamoyillar yetakchiligida rivojlantirishga mo'ljallangan metodik tizimdan sohada faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy amaliyotida hamda bu bo'yicha olib borilayotgan izlanishlarda, surdopedagogika bo'yicha malaka oshirish, qayta

tayyorlash kurslari mazmunini ishlab chiqishda, mashg'ulotlarini modellashtirishda qo'llanilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari eshitish idrokini tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar asosida:

kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining eshitish idrokini rivojlantirishda tarbiyaviy mashg'ulotlarning kompleks metodik imkoniyatlari o'quvchilarda eshitish chegarasining personal diagnostikani multisensor ta'sir muhitida "yaqindan uzoqqa" dinamikasida qo'llashga oid takliflari "Maxsus pedagogikada tadqiqot-tajribalar" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi, 258-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan 844215-sonli guvohnoma). Natijada, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv-nutqiy faoliyatini sensomotor muhitda rivojlantirishning didaktik ta'minoti takomillashtirilgan;

kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari eshitish idrokini rivojlantirishning funksional-metodik modeli korreksion-kompensatsion va integral tamoyillarga asoslangan 3 pozitsiya(eshitish, eshitish-ko'rish, kartochka-jest)li metodik tizimni audio-vizual-taktil kinestetik intervallarda sensomotor eshituv reaksiyasi dinamikasiga ko'ra optimallashtirishga oid takliflari Jizzax, Toshkent, Andijon viloyatlari ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazining 2026-yil 29-yanvardagi 01/10-01-40-son ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilarining eshituv-nutqiy tajribalarini rivojlantirishda akustik, audiokinestetik, vizualkinestetik, taktilkinestetik, sensomotor integrativ mashqlar tizimidan foydalanishning metodik ta'minotiga erishilgan;

tarbiyaviy mashg'ulotlarda o'quvchilar eshitish idrokini rivojlantirish texnologiyalari eshitish+labdan o'qishga motivatsiyalovchi adaptiv lug'atning akustik-ritmik mashqlar bilan nafas+ovoz+diksiya parallelida integrallashuvini individual rivojlanish xaritasi qaydlariga ko'ra ta'minlashga doir tavsiyalari "Surdopedagogika" darslik mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 4-maydagi 9299-3069-f841-b1aa-4508-8323-2675-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining eshitish idrokini rivojlantirishga oid texnologiyalarni keng ommalashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta, shundan, respublika jurnallarida 3 ta, xorijiy jurnalda 2 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida kar va zaif eshituvchi o'quvchilar eshitish idrokini rivojlantirishning nazariy asoslari" deb nomlanib, unda sog'lom va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish qonuniyatlari, eshitishida muammolari bo'lgan bolalar toifalari va ularning o'ziga xos psixofiziologik hamda nutqiy va kognitiv rivojlanish xususiyatlari yoritib berilgan va tahlil etilgan. Shuningdek, kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning eshituv idrokini rivojlantirish muammosi maxsus ta'lim doirasida metodik muammo sifatida tahlil qilinib, ushbu yo'nalishda mavjud ilmiy yondashuvlar, qarashlar va metodik tizimlar o'rganilgan.

Bola eshitishni qanchalik erta yo'qotsa, nutqni idrok etish imkoniyati ham, so'z boyligi ham shunchalik kam bo'ladi. Nutqsizlik atrofni to'liq anglamaslikni keltirib chiqaradi. Bolaning maktabda ta'lim olishida nutq muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun nutqni erta rivojlantirishning muhimligini J.I.Shif quyidagicha asoslaydi: "Nutqdan tashqarida rivojlanayotgan ko'rgazmali tafakkur tugal emas, ya'ni amalga oshmagan".

Til va tafakkur borliqning bir biriga bog'liq hodisasi bo'lib, eshitmaydigan insonlar rivojlanishiga ta'sirini baholagan olim A.A.Potebnyaning quyidagi fikri korreksion ta'limning zaruratini to'liq tasdiqlaydi: "Karlar gapiruvchilarsiz yoki gapirishni o'rgangan o'qituvchilarsiz bir umr hayvon sifatida qolaverardilar". Til eshitish, his etish, anglash orqali rivojlanadi. Ona tilini egallash asosida kar bolaning tafakkuri rivojlanadi. Tafakkurning rivojlanishi nutq bilan, nutqning rivoji eshitish bilan bog'liqdir. Demak, kar va zaif eshituvchi bola bilan eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuz malakalarini shakllantirish bo'yicha maxsus korreksion ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Mahalliy tadqiqotchilar F.Alimxo'jayeva va U.Fayziyevalar kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning eshitish qobiliyatini maxsus resurslar asosida rivojlantirishga erishish mumkinligini ko'rsatib o'tdi.

X.Gaynutdinov o'zining tadqiqot ishida kar va zaif eshituvchi bolalarni kelajakda o'ziga ishonchini oshirish, mustaqil hayotga tayyorlashda albatta, eshitish va nutqiy muloqot zarurligi va bu borada maqsadli ishlarini olib borish kerakligini ta'kidlaydi.

M.Rubinshteyn ta'lim maskanining bolaga ta'siri beqiyosligi ta'kidlab quyidagilarni aytadi: "Zamonaviy maktab faqatgina o'qitish, ya'ni bilim berish

bilangina emas, balki muassasada ijobiy, rivojlantiruvchi, tuzatuvchi va tarbiyaviy muhitni yaratishi lozim”.

Kar va zaif eshituvchi bolalarda eshitish idrokini rivojlantirish jarayoni faqat alohida mashg'ulotlar bilan emas, balki tarbiyaviy mashg'ulotlarda tizimli, uzviy va integratsiyalashgan pedagogik ta'sir orqali amalga oshirilishi zarur. Tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish- bu tarbiyaviy faoliyatga integratsiyalashgan holda, o'quvchilarning eshituv qoldiqlari va kompensator imkoniyatlariga tayanib, nutqiy va nonutqiy tovushni sezish, farqlash, anglash hamda muloqotda qo'llash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga yo'naltirilgan, maxsus tashkil etilgan pedagogik vositalar, usullar va texnologiyalar tizimidir.

Bugungi kunda kar va zaif eshituvchi bolalarning ta'lim jarayonida tarbiyachi va boshlang'ich sinf o'qituvchisi hamda maktabda olib boriladigan yakka mashg'ulotlarni tashkil etuvchi surdopedagogning hamkorligi tizimli yo'lga qo'yilmagan holatlar ko'p uchraydi. Bu esa bolalarning eshitish va nutq rivoji uchun zarur bo'lgan integratsiyalangan yondashuvni ta'minlashda to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari eshitish idrokini tarbiyaviy mashg'ulotlarda rivojlantirishda zamonaviy metodikalardan foydalanishga ehtiyoj mavjud.

Tadqiqot jarayonida eshitishida muammolari bo'lgan bolalar toifalarining ilmiy tasnifi alohida e'tiborga olinib, R.M.Boskisning psixologik-pedagogik tasnifi hamda L.V.Neymanning audiologik tasnifi o'zaro qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Mazkur tasniflarning integratsiyasi eshitish nuqsonining nafaqat fiziologik darajasini, balki uning nutq rivoji va kognitiv faoliyatga ta'sirini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni eshitish idrokini rivojlantirishda ularni tasniflash muhim omil hisoblanadi, chunki bola bilan amalga oshiriladigan korreksion mashg'ulotlar mazmuni va usullari bolaning eshitish muammosining darajasi, nuqsonning paydo bo'lish vaqti, bolaning individual holatiga qarab tanlanadi. Tibbiy tasnif eshitish yo'qotilishining darajasi va mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, psixologik-pedagogik tasnif bolaning nutqiy, bilish hamda kommunikativ rivojlanishi asosida ta'lim ehtiyojlarini belgilashga xizmat qiladi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda eshitish idrokini rivojlantirishning amaldagi holati tahlil qilinib, quyidagi metodik va tashkiliy muammolar aniqlangan: 1) individual yondashuvning yetishmasligi (o'quvchilarning eshitish darajasi, qoldiq eshitish imkoniyatlari va sensor rivojlanish xususiyatlari yetarli hisobga olinmayapti, natijada pedagogik ta'sir tizimsiz va epizodik xarakter kasb etmoqda); 2) fonematik differentsiatsiya qiyinchiliklari (o'zbek tili tovushlarini (xususan, artikulyatsion jihatdan murakkab fonemalarni qabul qilish va farqlashda muammolar mavjud bo'lib, bu maxsus metodik yondashuv va uzoq muddatli mashqlarni talab etadi); 3) tarbiyaviy mashg'ulotlarni takshil etish va bu jarayonda o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha metodik ko'rsatmalarning yetarli emasligi (eshitishni rivojlantirish va tovushlarni farqlashga qaratilgan mashqlardan foydalanish bo'yicha yaxlit metodik tizim ishlab chiqilmagan va

didaktik ta'minlanmagan, sensomotor va audikinetik usullardan foydalanish tizimli yo'lga qo'yilmagan); 4) tarbiyachilarda surdodiagnostika va metodik kompetensiyaning yetarli shakllanmaganligi (o'quvchilarning eshitish holatini aniqlash hamda unga mos metodik strategiyalarni tanlash bo'yicha yetarli malaka shakllanmagan, bu bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilmagan, malaka oshirish kurslarida esa, bu bo'yicha mavzular rejalashtirilmagan; 5) tashkiliy-pedagogik sharoitlarning nomukammalligi (sinflarda o'quvchilar tarkibini shakllantirishda eshitish nuqsoni darajalari inobatga olinmaydi, ota-onalar bilan ishlash sust, oila muhitida nutqiy mashg'ulotlar yetarli darajada tashkil etilmayapti); 6) texnik vositalardan foydalanishning cheklanganligi (eshitish apparatlari va audiologik texnologiyalar samarali qo'llanilmayapti, bu esa qoldiq eshitish imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda); 7) mutaxassislar o'rtasida integrativ faoliyatning sustligi (tarbiyachi va surdopedagoglar o'rtasida hamkorlik tizimi yetarli yo'lga qo'yilmaganligi sababli mashg'ulotlar kompleks va uzviy tashkil etilmayapti. Aniqlangan muammolarni tahlil qilish orqali tarbiyaviy mashg'ulotlarda eshitish apparatlaridan samarali foydalanish, sensomotor, audio, vizual, taktikinetik texnologiyalarni integratsiyalash, tarbiyachi-surdopedagog hamkorligini tizimli yo'lga qo'yish hamda ilmiy asoslangan, kompleks metodik modelni ishlab chiqish zarurligini belgilab berdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida kar va zaif eshituvchi o'quvchilar eshitish idrokini rivojlantirishning integrativ metodikasi" deb nomlanib, ushbu bobda tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilar eshitish idrokini tizimli rivojlantirishning funksional-metodik modeli va metodikasi ishlab chiqilgan. Tadqiqotda tarbiyaviy mashg'ulotlar eshituv-nutqiy faoliyatni tabiiy, real va kommunikativ vaziyatlarda rivojlantirish imkonini beruvchi samarali pedagogik muhit sifatida talqin etiladi. Tadqiqot davomida amaliyotga "Kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilar eshitish idrokini tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida rivojlantirishning funksional-metodik modeli" joriy etildi. (1-rasm) Mazkur model o'zaro uzviy bog'langan maqsadli, metodologik, didaktik va natijaviy komponentlardan iborat. Maqsadli komponent modelning strategik maqsad va vazifasini belgilab beradi. Metodologik komponent modelning ilmiy-nazariy asoslarini belgilaydi tamoyillar va eshituv-nutqiy yondashuvlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda tayanch bo'lib xizmat qiladi. Didaktik komponent modelning amaliy ijrosini ta'minlovchi tarkibiy qism bo'lib, tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari, vositalari, texnologiya, metodlarini qamrab oladi. Ushbu komponentda metodik tizim approbatsiya bosqichlari amalga oshirildi. Natijaviy komponent modelning samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Model eshitish idrokini rivojlantirishni qoldiq eshitish imkoniyatlariga tayangan holda, sensomotor, audio-vizual-taktik kinestetik va kommunikativ yondashuvlar integratsiyasi asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

Model doirasida eshitish idrokini rivojlantirish ishlari bosqichma-bosqich tashkil etilib, dastlab o'quvchilarning individual eshitish va nutqiy imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan diagnostik bosqich, so'ngra tovushlarga sezgirlikni oshirishga

yo'naltirilgan sensomotor faollashtirish bosqichi, nutq va artikulyatsiyani eshitish nazorati bilan bog'lovchi audio-vizual-taktil kinestetik rivojlantirish bosqichi hamda shakllangan ko'nikmalarni real muloqotda qo'llashga qaratilgan nutqiy integratsiya bosqichi ishlab chiqildi.

O'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirishga qaratilgan metodik ishlar Amaliy mashg'ulot, Sayr, Nutqiy muloqot, Mustaqil dars tayyorlash kabi tarbiyaviy mashg'ulotlar korreksion muhitida tashkil etildi, natijada o'quvchilarda akustik signallarni farqlash, nutqda qo'llash, kommunikativ faoliyatni rivojlantirish imkoniyati kengaytirildi. Eshitish idrokini rivojlantirishning funksional-metodik modeli an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda o'quvchini faol subyekti sifatida shakllantirishi, nutqni real muloqot jarayonida egallashga yo'naltirishi hamda uning ijtimoiy moslashuv darajasini oshirishga xizmat qilishi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berildi. Modelga kar va zaif eshituvchi o'quvchilar eshituv-nutqiy faoliyati tuzilishi, sifatlar ko'lami, natijaga erishish yo'llarini oydinlashtiruvchi nazariyalar tanlab olindi. Taklif etilgan modelning korreksion-didaktik imkoniyatlari shundaki, unda kar va zaif eshituvchi bolalarning sog'lom insonlar bilan muloqoti jarayonida eshitish idrokining qoldiq imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligi amaliyotda aniqlangan muammolar tahlili asosida ilk bor kompleks o'rganildi. O'quvchilarning eshitish idrokini real nutqiy vaziyatlarda sensomotor yondashuv va audiokinestetik, vizualkinestetik, taktilkinestetik metodlar orqali shakllantirish metodikasi takomillashtirildi. Natijada nutqiy tajribaning bolalarda so'zlarni farqlash, intonatsiyani anglash hamda nutq vaziyatini idrok etish qobiliyatiga ta'siri ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berildi. Takomillashtirilgan metodik tizim quyidagi bosqichlarda olib boriluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlardan tashkil topdi:

I. **Personal diagnostika** bosqichida bolaning eshitish idroki darajasi, qoldiq eshitish imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish holati va individual psixofiziologik xususiyatlari aniqlandi. Shu asosda bolaga mos nutqiy materiallar tanlanadi hamda individual ta'lim yo'nalishi belgilanadi. Ushbu tayyorlov bosqichi keyingi korreksion-rivojlantiruvchi ishlar uchun mustahkam metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

II. **Sensomotor faollashtirish** bosqichida harakat, ko'rish, eshitish, taktil, hid bilish, tam bilish, proprio va vetsibulyar kanallarini uyg'unlashtirish orqali bolada tovushlarga nisbatan sezgirlikni oshirishga qaratilgan mashqlar tashkil etildi. Sensomotor mashqlar orqali nutqiy signallarni qabul qilish va ularni harakat bilan bog'lash ko'nikmalari shakllantiriladi. Bolada tovushlarga nisbatan sezgirlikni oshirish va nutqiy signallarni qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan sensomotor mashqlar tizimi tashkil etiladi. Mashqlar harakat, ko'rish, eshitish, teri-taktil kanallarini uyg'unlashtirish asosida olib boriladi, bu bolaning sensor integratsiyasini va nutqiy faolligini faollashtiradi. Fonetik rivojlanish uchun artikulyatsiyani va tovushlarni to'g'ri chiqarishni ta'minlaydigan harakatlar qo'llaniladi: lab va tili harakatlari, ovoz chiqarish ritmi, artikulyatsion gimnastika va imitatsiya mashqlari. Leksik qo'llab-quvvatlashda sensomotor faoliyatni leksik birliklar bilan uyg'unlashtirish yo'lga qo'yiladi: predmet va harakatlarni nomlash, sinonimlar va faol lug'at mashqlari orqali bola nutqiy boyligini oshiradi.

Sensomotor bosqich bolaning har 7 sensor kanalini uyg'un faoliyatga jalb etish orqali, nutqiy signallarni tushunish va ularni harakat bilan bog'lash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa keyingi kinestetik-kinetik va muloqot bosqichlarini samarali olib borishning asosiy platformasini yaratadi.

III. **Audiokinestetik, vizualkinestetik, taktilkinestetik** rivojlantirish bosqichida bolaning artikulyatsion harakatlari, tovush chiqarish jarayoni va eshitish nazorati o'zaro bog'langan holda rivojlantirildi. So'zlarni ajratish, intonatsiyani farqlash va nutqiy ritmni his qilishga qaratilgan mashqlar tizimli ravishda qo'llaniladi.


IV. **Nutqiy muloqot integratsiyasi** bosqichida shakllangan ko'nikmalarni real nutq vaziyatlarida qo'llash ta'minlandi. Bolaning sog'lom insonlar bilan tabiiy muloqotga kirishishi, nutqiy vaziyatni anglashi va munosabat bildirishi qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu metodik tizim muloqot orqali nutqni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchini muloqot sub'ekti sifatida qarash imkonini beradi. Unda predmetli-amaliy faoliyat asosiy didaktik tayanch sifatida belgilanib, sezgilarning uyg'unligi orqali rivojlantiriladi. Natijada nutqning shakllanishi alohida tovush va so'z darajasidan so'zlashuv nutqi darajasiga ko'tariladi.

Tarbiyachi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, individual (yakka) mashg'ulotlar olib boruvchi pedagog hamda ota-onalarning maqsadga yo'naltirilgan hamkorligi eshitish idrokini rivojlantirishning zarur pedagogik sharti sifatida belgilandi. Chunki eshitish idrokini shakllantirish va takomillashtirish jarayoni faqatgina maxsus mashg'ulotlar doirasida emas, balki bolaning kundalik ta'limiy, tarbiyaviy va ijtimoiy muhitida izchil davom ettirilgandagina yuqori samaradorlikka erishadi. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning eshitish idrokini tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari metodologik jihatdan pedagoglarning tizimli metodik hamda pedagogik faoliyatiga tayangan holda amalga oshirildi.

Tarbiyachi tomonidan tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyatda eshituv stimullarini tabiiy sharoitda idrok etishga yo'naltirilgan vaziyatlar yaratildi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan esa o'quv jarayoniga audiovizual va multisensor elementlar integratsiya qilindi. Yakka mashg'ulotlar doirasida individual eshitish imkoniyatlariga moslashtirilgan differensial yondashuv amalga oshirildi, ota-onalar esa bolada shakllantirilayotgan eshituv ko'nikmalarini mustahkamlashda uzluksiz pedagogik qo'llab-quvvatlovchi subyekti sifatida ishtirok etdilar.

Tajriba-sinov jarayonida eshitish idrokini rivojlantirish metodikasi uch asosiy yo'nalish doirasida tizimlashtirildi: 1) kundalik hayotda, tabiatda uchraydigan buyumlar, voqea-hodisa (nonutqiy tovushlar)larni eshitib farqlash; 2) o'ziga qaratilgan nutqiy murojaatni eshitishi, farqlashi va mos javob qaytarishi; 3) o'quv fanlarga oid nutqiy materiallarni eshitishi, farqlashi, mustaqil nutqda qo'llashi. Tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida ushbu yo'nalishlar bo'yicha quyidagi texnologiya va metodikalar qo'llanildi.

"Eshit va farqla" texnologiyasi "Sayr" mashg'ulotida qo'llanildi. Real ijtimoiy muhitda tashkil etilgan mashg'ulot o'quvchilarning eshitish idrokini tabiiy tovush manbalari asosida rivojlantirish imkonini berdi.



1-rasm. Kar va zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining eshitish idrokini tarbiyaviy mashg'ulotlarda rivojlantirishning funksional-metodik modeli

